



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 7-iyul, № 137 (9308)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



IORDANIYA BILAN O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK YANADA RIVOJLANTIRILADI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyul kuni Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar masalalari bo'yicha vaziri Ayman Husayn Safadiy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Iordaniya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O'tgan yili Samarqandda oliy darajada o'tgan sermahsul muzokaralar ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Erishilgan kelishuvlar doirasida joriy yilda parlamentlararo do'stlik guruhlar tuzildi, Hukumatlararo qo'shma komissiyaning ilk yig'ilishi o'tkazilib, Ishbilarmonlar kengashi ta'sis qilindi, shuningdek, havo qatnovlari yo'lga qo'yildi.

Kelgusida siyosiy muloqotlarni faollashtirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar sohalarida qo'shma loyiha va dasturlarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG'ISTONNING BIRINCHI PREZIDENTINI TABRIKLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyul kuni telefon orqali muloqotda Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyevni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va uzoq umr tiladi.

Davlatimiz rahbari Nursulton Nazarboyevning zamonaviy Qozog'istonning barpo etilishi, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish hamda O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasini alohida e'tirof etdi.

O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi mustahkam do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ko'mak rishtalariga asoslangan ko'p qirrali hamkorlikning bugun yuqori sur'atda rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

KUZ-QISH MAVSUMIDA ENERGIYA RESURSLARI BARQARORLIGI TA'MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz tarmog'ida navbatdagi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining borishi yuzasidan axborot bilan tanishdi.

2026-2027-yillar kuz-qish mavsumida aholi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rib chiqildi. Tabiiy va suyuqlirilgan gaz yetkazib berish, magistral va hududiy gaz tarmoqlarini ta'mirlash, yoqilg'i zaxiralarini shakllantirish hamda avariya-tiklash brigadalarning shayligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi.

Tabiiy gaz ta'minoti tizimini mavsumga tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, mavsumgacha magistral gaz quvurlarining 53,7 kilometr nuqsonli qismini almashtirish, kompressor stansiyalaridagi 77 ta gaz haydash agregatini mukammal ta'mirlash rejalashtirilgan.

Shuningdek, 881 ta mahalladagi 220 ming xonadonning gaz ta'minotini yaxshilash va texnologik yo'qotishlarni qisqartirish maqsadida uch bosqichli taqsimlash tizimidan ikki bosqichli tizimga o'tkazish ko'zda tutilgan. 711,9 kilometr gaz tarmog'i va 400 ta gaz taqsimlash punkti mukammal ta'mirlanadi hamda rekonstruksiya qilinadi.

Aholi va ijtimoiy soha obyektlarini suyuqlirilgan gaz bilan ta'minlash masalasi ham ko'rib chiqildi. Quz-qish mavsumida 325,7 ming tonna suyuqlirilgan gaz yetkazib berish, shu jumladan, borish qiyin bo'lgan 229 ta qishloqdagi 104,7 ming iste'molchiga 8,2 ming tonna suyuqlirilgan gaz yetkazish belgilangan.

Qish davri uchun yoqilg'i zaxiralarini shakllantirish bo'yicha ham choralar ko'rilmogda. Jumladan, dekabr-yanvar oylari uchun 120 ming tonna avtobenzin zaxirasini yaratish rejalashtirilgan. Issiqlik elektr stansiyalariga mavsum davomida 4 million 161 ming tonna ko'mir yetkazib berish prognoz qilinmogda.

"O'zbekneftgaz" tizimidagi korxonalarda texnologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida 90 ta texnologik qurilmada ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bu ishlab chiqarish quvvatlarining uzluksiz ishlashi, aholi va iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq holda olib borish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu maqsadda respublika va hududiy komissiyalar faoliyatini yo'lga qo'yib, mavsumga tayyorgarlik ishlarini muvofiqlashtirish va doimiy nazorat qilib borish topshirildi.

Mutasaddilarga belgilangan chora-tadbirlar ijrosini qat'iy nazorat qilish, mavsumga tayyorgarlik ishlarini muddatida va sifati yuqunlash, aholi hamda ijtimoiy soha obyektlariga tabiiy va suyuqlirilgan gaz, shuningdek, boshqa yoqilg'i resurslarini barqaror yetkazib berish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA.

CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISH HAMDA «YASHIL SHAHAR» TAMOVILLARI TATBIQIDA ISTIQBOLLI YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev cho'llanishga qarshi kurashish va cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, shaharlarda "yashil shahar" tamoyillarini joriy etish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llanish bugun butun mintaqada uchun dolzarb ekologik muammoga aylanmogda. Bu esa qishloq xo'jaligi barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi salomatligi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmogda.

Mamlakatimiz hududining qariyb 80 foizi cho'l va yarimcho'l maydonlaridan iborat. Yerlarning sho'rlanishi, qum ko'chishi, chang bo'ronlari va garmseller, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari, shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlarida jiddiy xavf tug'dirmogda.

Orol dengizining qurishi mazkur jarayonni yanada kuchaytirgan. Qurigan tubda Orolqum cho'li shakllanib, havoga ko'tarilayotgan tuz va chang keng hududlarga tarqalmogda. Shu bois Orolbo'yida yashil qoplamalar barpo etish, saksovul va boshqa cho'l o'simliklarini ekish ishlari izchil davom ettirilmogda. Keyingi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq yangi o'rmonzorlar tashkil etildi.

"Yashil makon" umummilliy

loyihasi doirasida ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmogda. Mamlakat bo'ylab 1 milliarddan ziyod daraxt va buta ko'chatlari ekildi, ko'kalmozorlashtirish darajasi 2020-yildagi 8 foizdan 2025-yilda 14,3 foizga yetdi.

Taqdimotda 2026 – 2030-yillarda cho'llanishga qarshi kurashish ishlarini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi. Jumladan, 1,27 million gektarda o'rmon barpo etish va qayta tiklash, cho'l, tog' va tog'oldi hududlarda 16 ming gektar himoya o'rmonzorlari yaratish rejalashtirilgan.

Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar maydonda yashil qoplamalar tashkil etish, Sirdaryo viloyatining chegaradosh hududlarida 84 kilometrlik "yashil devor" barpo qilish, tog' va tog'oldi hududlarida "terrasa" usulida daraxt va butalar ekish, degradatsiyaga uchragan yerlarda zamonaviy agrotexnologiyalarni sinovdan o'tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari cho'l hududlariga faqat ekologik muammo sifatida emas, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar manbai sifatida qarash zarurligini ta'kidladi. Shu maqsadda "cho'l iqtisodiyoti" yondashuvini rivojlantirish, qo'riq va sho'rlangan yerlarda barqaror daromad

manbalarini yaratish, cho'l o'simliklari urug'chiligi va ko'chatchiligini yo'lga qo'yish, galofit o'simliklar yetishtirish, yaylovlar mahsuldorligini oshirish, chorvachilik, ekologik turizm va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Bu borada Qoraqalpog'istonda cho'l o'simliklari ko'chatxonalarini tashkil etish, Orolning qurigan tubida ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazish, Bobotog' hududida zamonaviy usullar asosida pista plantatsiyalarini rivojlantirish, galofit bog'lar tarmog'ini kengaytirish taklif etildi. Shuningdek, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar va urug'lar bo'yicha mintaqaviy bank yaratish, xalqaro fondlar va xususiy investitsiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Taqdimotda Markaziy Osiyo davlatlari bilan ekologik hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Cho'llanish va yer degradatsiyasi chegara bilmaydigan muammo ekani, shu bois unga qarshi kurashishda yagona mintaqaviy yondashuv, ilmiy hamkorlik, ma'lumot almashish va texnologiyalar transferi muhimligi ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan cho'llanishga qarshi kurashish va cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi

faoliyatini kengaytirish, "Yashil qalqon" mintaqaviy dasturi doirasida amaliy loyihalarni ko'paytirish, 2040-yilgacha cho'llanishga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish tashabbuslari ilgari surildi.

Samarqand shahrining tarixiy-madaniy merosi, Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni, xalqaro turizm markazi sifatidagi salohiyati, strategik geografik joylashuvi hamda mavjud suv va transport infratuzilmasini inobatga olgan holda uni Markaziy Osiyoda ekologik barqaror, iqlimga moslashgan va zamonaviy "yashil shahar" namunasiga aylantirish nazarda tutilmogda.

Shunga muvofiq, taqdimotda shaharlar ekologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha "Green Samarkand" modeli ko'rib chiqildi.

Mazkur model doirasida 2030-yilga qadar Samarqand shahrida aniq ekologik ko'rsatkichlarga erishish belgilangan. Jumladan, atmosferaga chiqarilish mumkin bo'lgan 51,2 ming tonna zararli tashlamalarning oldini olish, sanoat va energetika obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatish orqali "PM2.5" va "PM10" zarrachalarini 50 foizga kamaytirish, qurilish obyektlaridan chiqadigan chang miqdorini 80 foizga,

MA'RIFATGA TAYANGAN TARAQQIYOT YO'LI

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida 7 – 11-iyul kunlari mamlakatimizda bo'lib o'tadigan "Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag'rikenglik va ilm-ma'rifat yo'li" mavzuidagi I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi oldidan brifing tashkil etildi.

Unda anjumanning maqsad va vazifalari, tadbirlar dasturi hamda xalqaro ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur forum Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan ma'rifat va diniy bag'rikenglik g'oyalarning amaliy davomi hisoblanadi.

Forumning bosh maqsadi islom sivilizatsiyasining boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, buyuk allomalarimiz merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, turli mamlakatlar olimlari o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashdan iborat.



Ayman SAFADIY:

O'ZBEKISTON PREZIDENTINI IORDANIYADA QABUL QILISH SHARAFIGA EGA BO'LISHNI INTIQLIK BILAN KUTMOQDAMIZ

O'zbekistonga tashrif buyurgan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar masalalari bo'yicha vaziri Ayman Husayn SAFADIY "Dunyo" AA muxboriga intervyu berdi.

Intervyu

– Men uchun O'zbekistonda mehmon bo'lish katta sharaf. Bizning tashrifimiz o'tgan yili Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn Hazrati Oliyalarining O'zbekistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi, shuningdek, u kishining Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyari bilan o'tkazgan samarali muzokaralari va sermahsul uchrashuvlarida erishilgan natijalarning mantiiqiy davomidir.

Mamlakatlarimiz birodar davlatlardir.

FAOL MUNOSABATLAR YANADA KENGAYADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Spiker Nuriddin Ismoilovning O'zbekistondagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Ozarbayjon Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Guseyn Guliyev bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqotda keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan odilona siyosati natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yuqori bosqichga ko'tarilgani qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 17-18-may kunlari Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yangi sifat bosqichiga ko'targani ta'kidlandi.

Qonunchilik palatasi Spikeri elchining O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlarini

m u s t a h k a m l a s h , mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qo'shgan salmoqli hissasini alohida qayd etdi.

O'z n a v b a t i d a , Guseyn Guliyev samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, diplomatik faoliyati davomida buyuk o'zbek tarixiy siymolarining hayotini, shuningdek, mamlakatning boy tarixini o'rganish imkoniga ega bo'lgani va bu unda chuqur taassurot qoldirganini bildirdi.

Shuningdek, elchi o'zbek va ozarbayjon xalqlari bir-biridan ajratib bo'lmaydigan qardosh xalqlar ekani, ikki

davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar barcha sohada sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini aytib o'tdi.

Muloqotda so'nggi yillarda parlamentlararo aloqalar sezilarli darajada mustahkamlangani ta'kidlanib, faol munosabatlar va strategik sheriklik sharoitida oliy darajada erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini ta'minlashda parlamentlarning rolini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Uchrashuv ochiq va do'stona ruhda kechdi.

"Xalq so'zi".

CHOʻLLANISHGA QARSHI KURASHISH HAMDA «YASHIL SHAHAR» TAMOYILLARI TATBIQIDA ISTIQBOLLI YONDASHUVLAR

Transport sohasida Samarqand shahrini ekologik toza harakatlanish modeliga oʻtkazish nazarda tutilgan. Buning uchun 50 ta zamonaviy katta sigʻimli elektrobus xarid qilish, chorrhalarada 150 ta yangi svetofor oʻrnatish, 2030-yilga qadar jamoat transporti va taksi xizmatini toʻliq elektr transportiga oʻtkazish choralarini koʻriladi. Shu bilan birga, "Park & Ride" tizimi joriy etilib, piyodalar harakati ustuvor boʻlgan yashil turistik hududlar tashkil qilinadi, shahar markaziga shaxsiy avtotransport kirishi bosqichma-bosqich kamaytiriladi.

Suv va "yashil" infratuzilmani rivojlantirish maqsadida Samarqand shahrida kamida 4 ta, viloyat tumanlari markazlarida esa kamida bittadan sunʼiy koʻl va suv havzalari tashkil etiladi. Samarqand shahrida

qoʻshimcha 10 ta yangi favvora qurilib, mavjud favvoralar infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi. Shuningdek, umumiy uzunligi 319 kilometr boʻlgan ariqlar tizimi quriladi va tiklanadi.

Shahar atrofida himoyaviy "yashil" infratuzilmani shakllantirish maqsadida "Yangi katta halqa yoʻli" boʻylab uzunligi 102,7 kilometr, umumiy maydoni 3532 gektar boʻlgan "yashil belbogʻ" barpo etiladi. Ushbu belbogʻ chang va issiq havo oqimlarini kamaytirish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash, shahar atrofida tabiiy himoya zonasini yaratish hamda iqlimga moslashuv choralarini kuchaytirishga qaratilgan.

Shaharsozlik yoʻnalishida 300 gektar maydonda "Green City Samarkand" hududini tashkil etish koʻzda tutilgan. Ushbu hududda turarjoy, ofis, xizmat koʻrsatish, turizm va jamoat

infratuzilmasi obyektlari xalqaro "yashil shahar" standartlari asosida barpo etiladi.

Sanoat obyektlarining ekologik taʼsirini kamaytirish uchun "yashil sanoat zonası" hududida eng maqbul texnologiyalar, "Zero Visible Emission" va raqamli ekologik monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mavjud sanoat zonaları atrofida "yashil belbogʻ"lar tashkil etiladi hamda aholi sogʻligʻiga jiddiy xavf tugʻdirishi mumkin boʻlgan I va II toifaga mansub 8 ta sanoat korxonasini shahar hududidan tashqariga koʻchirish choralarini koʻriladi.

Chiqindilarni boshqarish sohasida "Zero Waste Samarkand" tamoyili asosida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va poligonlarga yuboriladigan hajmini kamaytirish tizimi joriy etiladi. Noqonuniy chiqindi tashlash

holatlarini raqamli xaritalash va foto-videoofsatsiya qilish boʻyicha axborot tizimi ishga tushiriladi.

Iqlim siyosati yoʻnalishida Samarqand shahri uchun 2030 va 2035-yillarga moʻljallangan uglerod chiqindilarini qisqartirish maqsadli koʻrsatkichlari hamda "Carbon Neutral Samarkand" "Yoʻl xaritasi" ishlab chiqiladi. Shuningdek, "yashil" va iqlim loyihalarini moliyalashtirish uchun "Green Samarkand Climate Finance Facility" platformasi, natijalarni ochiq eʼlon qilish va monitoringini yuritish uchun "Green Samarkand Dashboard" raqamli platformasi ishga tushiriladi.

Turizm va bioxilmaxilik yoʻnalishida "Yashil Samarkand" brendi, "Green Hotels Samarkand" reyting tizimi, "Samarkand City Biodiversity Index" metodologiyasi, "Urban Biodiversity

Samarkand" pilot loyihasi va "Bioxilmaxilikni asraymiz" koʻngillilar dasturi amalga oshiriladi. Shu orqali Samarqand shahri ekologik turizm, "yashil" investitsiyalar va barqaror shaharsozlik yechimlari markaziga aylantiriladi.

Umuman, loyiha doirasida Samarqandni "Markaziy Osiyoning "yashil" investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti" sifatida shakllantirish uchun tashkiliy, moliyaviy va amaliy asoslar yaratiladi.

Prezidentimiz takliflarni maʼqullab, choʻllanishga qarshi kurashish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, shaharsozlikda ekologik talablarni kuchaytirish va aholi uchun sogʻlom muhit yaratish masalalari yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

OʻzA.

Senat qoʻmitasida



ISLOHOTLAR
IZCHILLIGINI
MUSTAHKAMLOVCHI
OʻZGARISHLAR

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi majlisida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash hamda ayrim sohalarni huquqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan qator qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Ayman SAFADIY: OʻZBEKISTON PREZIDENTINI IORDANIYADA QABUL QILISH SHARAFIGA EGA BOʻLISHNI INTIQLIK BILAN KUTMOQDAMIZ

Insha Alloh, ana shu mustahkam poydevor ustida bunyod etilayotgan kelajak ham shunday buyuk boʻladi.

Iordaniya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlar hamkorlikni kengaytirish yoʻlida jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda. Avval ham taʼkidlaganimdek, Podshoh Hazrati Oliylarining Oʻzbekistonga tashrifi va u kishining Prezident Janobi Oliyilari bilan oʻtkazgan uchrashuvlari haqiqatan ham tarixiy ahamiyatga ega boʻldi.

Biz iqtisodiyot, madaniyat, turizm, mudofaa hamda boshqa koʻplab sohalarda hamkorlikni kengaytirish boʻyicha aniq yoʻnalishlarni belgilab beruvchi "Yoʻl xaritasi"ni ishlab chiqdiki. Bugun bu borada sezilarli natijalarni koʻryapmiz.

Albatta, yaqin kelajakda Oʻzbekiston Prezidentini Ammon shahrida qabul qilish sharafiga ega boʻlishni intilik bilan kutmoqdami. Boʻljak tashrif munosabatlariimizda erishilgan ulkan taraqqiyotni yanada mustahkamlash va yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Bizda hamkorlikni yanada rivojlantirish boʻyicha aniq tasavvur va yondashuv mavjud. Mamlakatlarimiz oʻrtasida allaqachon mustahkam va samarali hamkorlik shakllangan, biroq har ikki xalq manfaati yoʻlida yanada koʻproq ishlarni amalga oshirish mumkinligiga ishonamiz.

Shu bois biz toʻgʻri yoʻldami va kelgusida hamkorligimiz yanada kengayishiga ishonchim komil.

“Dunyo” AA.

ICHIMLIK SUVI TAʼMINOTIDA MUAMMO BOʻLMAYDI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi aʼzosi Gulnora Maʼrufova Toshkent shahrining Yangiheyot tumanidagi Jaloir mahallasini ichimlik suvi bilan taʼminlash masalasi yuzasidan shu yil 25-may kuni Toshkent shahar hokimiga senator soʻrovi yuborgan edi.

Senator soʻrovi

Unda mazkur mahallada qiymati 8,7 mlrd. soʻmlik, umumiy uzunligi 41,4 kilometr boʻlgan yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish belgilanganiga qaramay, joriy ishlar bugungi kunga qadar yakunlanmagani qayd etilgan. Natijada 2 mingdan ziyod aholi istiqomat qilayotgan, 300 dan ortiq xonadonlarni oʻz ichiga olgan mahallada ichimlik suvi taʼminoti bilan bogʻliq muammolar saqlanib qolayotgani va bu aholining haqli eʼtirozlariga sabab boʻlayotgani tilga olingan edi.

Toshkent shahar hokimligi tomonidan

belgilangan muddatda mazkur senator soʻroviga javob taqdim etildi.

Unda maʼlum qilinishicha, Yangiheyot tumanidagi Jaloir mahallası aholisini ichimlik suvi bilan taʼminlash ishlarini yakuniga yetkazish maqsadida Toshkent shahrini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan 9,5 mlrd. soʻm mablagʻ ajratilgan.

Shuning hisobidan loyiha buyurtmachisi sanalgan "Oʻzsuvtaʼminot" AJ huzuridagi "Toshkent shahar suv injiniring kompaniyasi" MCHJ tomonidan mahallada umumiy uzunligi 8,6 kilometr boʻlgan ichimlik suvi tarmogʻi quriladi.

“Xalq soʻzi”.

SERGELI ZAMONAVIY VA OBOD HUDUDGA AYLANADI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bunyodkorlik ishlari va amalga oshirilgan loyihalar bilan tanishish maqsadida Sergeli tumaniga tashrifi davomida mavjud muammolar koʻrsatilib, ularni tizimli hal etish boʻyicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Fikr

Sergeli tumanida aholi va tadbirkorlar sonining ortib borayotgani sababli elektr energiyasiga yillik talab besh yilda 40 foizga koʻpaygani hududning jadal rivojlanayotganidan dalolat. Biroq ayrim mahallalarda elektr kuchlanishi meʼyordan 1,5-2 barobar pastligi qayd etilgani bu oʻsishga infratuzilma yetarlicha javob berolmayotganining isboti. Shu nuqtayi nazardan, "Shaharoldi", "Oʻzgarish" va "Qumariq" nimstansiyalarini ishga tushirish uchun ajratilgan 107 mlrd. soʻm mablagʻning samarali va belgilangan muddatlarda oʻzlashtirilishi juda muhim. Bu faqatgina aholiga elektr taʼminotini kafolatlash emas, balki tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirishda ham dolzarb omildir.

Toshkent viloyatidan olti yil oldin Sergeliga qoʻshilgan 13 ta mahallada 14,5 ming xonadon va 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilayotgani bu hududning qanchalik katta ijtimoiy salohiyatga ega ekanini koʻrsatadi. Ammo bu yerda yashovchi aholi haligacha shahar muhitini toʻliq his qilmagani haqidagi tanqidiy mulohaza juda oʻrinli.

Bu, avvalo, infratuzilmadagi uzilishlar, xizmat koʻrsatish sifatining yetarli emasligi va shaharsozlik yondashuvining toʻliq amalga oshmaganı bilan bogʻliq.

Shu maʼnoda, Prezidentimiz tomonidan bu masalaning ochiq qoʻyilishi va aniq muddatlar belgilanishi aholi manfaati ustuvor boʻlgan davlat boshqaruvining yaqqol namunasidir.

Shuningdek, yigʻilishda Bektimir, Mirzo Ulugʻbek, Sergeli, Yashnobod va Yangiheyot tumanlaridagi 46 ta mahallada elektr, suv, kanalizatsiya va yoʻl boʻyicha birota hal etilmagan masala qolmasligi kerakligi taʼkidlangani poytaxtni kompleks rivojlantirishga qaratilgan yangi bosqichning



ifodasidir. Bu yondashuvda hududlar oʻrtasidagi farqni kamaytirish, yangi qoʻshilgan mahallalarni toʻliq shahar standartlariga olib chiqish va aholi uchun teng imkoniyatlar yaratish gʻoyasi mujassam.

Sergeli va Yangiheyot tumanlari bilan bogʻliq ogʻriqli muammolardan yana biri – aholini qiynab kelayotgan suv tozalash inshooti atrofida badboʻy hid masalasi ham tashrif chogʻida eʼtibordan chetda qolmadi. 1-sentabrghacha oqova suv qabul qilish inshootiga zamonaviy filtrlash uskunalarini oʻrnatish topshirilgani mazkur muammoning kechiktirib boʻlmas darajada ekanini koʻrsatadi. Bu yerda ham yondashuv aniq: muammoning ildiziga yetib borish va uni zamonaviy texnologiyalar asosida hal etish. Bu aholi salomatligi va ekologik barqarorlik uchun juda muhim kafolatdir.

Prezidentimizning Sergeli tumaniga tashrifi hududdagi muammolarni aniqlash va hal etish bilan birga, poytaxtning yangi qismlarini toʻliq shahar muhitiga moslashtirish boʻyicha qatʼiy siyosiy isrohi namoyon etdi.

Ushbu tashrif aholi hayotini yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va Toshkentni yanada zamonaviy, qulay hamda obod shaharga aylantirish yoʻlidagi muhim qadam. Asosiysi, bu qarorlar qogʻozda qolib ketmasligi, belgilangan muddatlarda amaliy natija berishi kerak. Ana shunda Sergeli haqiqiy maʼnoda yangi shahar muhitini his etgan, zamonaviy va farovon hududga aylanadi.

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi.

QONUN LOYIHALARIDA YENGILLIK VA IMTIYOZLAR AKS ETMOQDA

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyı palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihaları koʻrib chiqildi.



Ishbilarmonlik muhiti yanada yaxshilanadi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlaganimdek, qonun loyihasida koʻzda tutilgan soliq maʼmurchiligini soddalashtirish, xususan, chet el fuqarolari uchun maxsus soliq rejimini qoʻllash ularning Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida olgan daromadlarini soliqdan ozod qilish imkonini beradi.

Shuningdek, loyihada sanoat korxonalarida dual taʼlim shaklida tahsil olayotgan xodimlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 2030-yil 1-yanvarga qadar boʻlgan davrda ikki baravar kamaytirilib, amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirilishi milliy iqtisodiyot uchun zarur boʻlgan malakali kadrlarni dual taʼlim orqali tayyorlashni ragʻbatlantirishga yoʻl ochadi.

– Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, xorijiy mutaxassislar uchun qulay sharoitlar yaratish, mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zamin hozirlaydi, – dedi fraksiya aʼzosi Maʼrufjon Rahmonov.

Muhokamadan soʻng ushbu hujjat deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Odil sudlov: samaradorlikka erishishda keng imkoniyatlar

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sud ish yurituvida tarafflarning tortishuvi va teng huquqliqli prinsipini taʼminlash, advokatlar faoliyatini professionalashtirish, bu borada xalqaro standartlarni milliy qonunchilikda aks ettirish yuzasidan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tarafflarning chinakam tengligini taʼminlash hamda himoyachining huquqlarini yanada kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat-protsessual kodeksi hamda "Advokatura toʻgʻrisida"gi Qonunga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Yaʼni jinoyat ishi sudga faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga kiritilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, himoyachiga dastlabki tergov yoki surishtiruv yakunlanganidan keyin besh sutka ichida "himoya fikri"ni taqdim qilish huquqi berilishi belgilanmoqda. Himoya fikrida ayblovga munosabat, dalillar, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, sudga chaqirilishi soʻralayotgan shaxslar va boshqa fikrlar aks ettirilishi mumkin.

– Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar fraksiya yigʻilishida atroflicha muhokamadan oʻtkazildi, – deydi fraksiya aʼzosi Muhammadjon Valiyev. – Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi, albatta, suv muhokamalarida tenglikni taʼminlashga, sudyaning ish boʻyicha har ikki tomon fikri bilan oldindan tanishishga imkoniyat yaratishga hamda odil sudlov sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish taʼminlanadi

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida jinoyat ishi boʻyicha sudlarga ayblov xulosasi bilan birgalikda himoya fikrini yuborish va himoya fikrini taqdim etish tartibini belgilash, chet el fuqarolariga maxsus soliq rejimini qoʻllash hamda ularni ragʻbatlantirishga qaratilgan qator qonun loyihaları muhokama qilindi.

Xususan, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan "Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi"ga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Unda suvlarning davlat hisobini yuritish, suv xoʻjaligi obyektlari va gidrotexnika inshootlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni bevosita masʼul shaxslarga nisbatan qoʻllash boʻyicha qonun loyihasi qabul qilindi.

Muhokama jarayonida deputat Sayyora Imomova qonun loyihasining ahamiyatiga toʻxtalib, belgilanayotgan normalar suv resurslaridan samarali foydalanishni taʼminlash, sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, suv resurslari muhofazasi tizimini yanada kuchaytirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Yigʻilishda qator xalqaro bitimlarni ratifikatsiya qilish boʻyicha qonun loyihaları ham muhokama etildi. Jumladan, "Shanxay hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlar oʻrtasida Shanxay hamkorlik tashkilotining Gijovvandlikka qarshi kurashish markazi toʻgʻrisidagi Bitimni (Tyanszin, 2025-yil 1-sentabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasi atroflicha koʻrib chiqildi va qoʻllab-quvvatlandi.

Ekologik barqarorlikni mustahkamlash – ustuvor masala

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

yigʻilishida suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv xoʻjaligi sohasida qonunchilik talablariga rioya etilishini taʼminlashga qaratilgan – "Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi"ga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Muhokama davomida keyingi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish, suvlarning davlat hisobini yuritish tizimini takomillashtirish hamda suv xoʻjaligi obyektlari xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Qonun loyihasi suvlarning davlat hisobini yuritishga, suv xoʻjaligi obyektlari va qurilmalaridan foydalanish qoidalariga, shuningdek, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi toʻgʻrisidagi qonunchilikka rioya etilishiga bevosita masʼul shaxslarning masʼuliyatini oshirishga hamda oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan.

– Mazkur qonun loyihasi suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish yoʻnalishida masʼul shaxslarning javobgarligini oshirish, suv xoʻjaligi obyektlaridan xavfsiz va samarali foydalanishni taʼminlash hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi, – dedi fraksiya aʼzosi Mohira Xoʻjayeva.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Shuningdek, yigʻilishda Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi raisiga "2030-yilgacha boʻlgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi ijrosini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida" parlament soʻrovini yuborish masalasi ham muhokama qilindi.

Jarayonda davlat organlari xodimlarining ekologik bilimlarini oshirish, mahallalarda ekovoliyotyorlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash yuzasidan taʼsirchan parlament nazoratini kuchaytirish muhimligi taʼkidlandi.

Yigʻilishda fraksiya aʼzolari Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi raisiga parlament soʻrovi yuborish tashabbusini qoʻllab-quvvatladi.

“Xalq soʻzi”.



MUSHTARAK TARIXIY ILDIZLAR

Oʻzbekiston bilan Gruziya oʻrtasidagi munosabatlar tarixiy ildizga ega. 2022-yil 19-iyulda Toshkentdagi Shota Rustaveli maydonining ochilish marosimi boʻlib oʻtgan boʻlsa, 2025-yil 20-may kuni Tbilisi shahar kengashi qarori bilan poytaxtning markaziy bogʻlaridan biriga buyuk oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy nomi berilgani bejiz emas. Bugungi kunda ham oʻzaro munosabatlar siyosiy, iqtisodiy madaniy va gumanitar sohalarida izchil rivojlanib bormoqda.



Mamlakatimizda Gruziyaning birinchi raqamli banki – “TBC” muvaffaqiyatli faoliyat yuritib, hozirda Oʻzbekistonda Gruziya kapitali ishtirokidagi 20 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Toshkent bilan Tbilisi va Batumi shaharlari oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonning tashqi siyosatida Gruziya yoʻnalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Dengizga chiqish nuqtasi hisoblangan Gruziya oʻzining Yevropa va Osiyoni bogʻlovchi tranzit janjiridagi oʻrni, “Oʻrta yoʻlak” loyihasidagi mavqei, shuningdek, turizm, bank, logistika, axborot texnologiyalari va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtiroki bilan ajralib turadi.

2-iyul kuni Prezidentimizning Gruziyaga davlat tashrifi doirasida boʻlib oʻtgan muzokaralar davomida Oʻzaro savdo hajmini, jumladan, Poti va Batumi portlari salohiyatidan samarali foydalanish orqali yanada oshirish masalalariga ustuvor eʼtibor qaratilib, buning uchun imkoniyatlar mavjudligi koʻrsatib oʻtiladi. Ishbilarmonlik, turistik va gumanitar almashinuvlarni yoʻlga qoʻyish uchun hududlar oʻrtasidagi aloqalarni kengaytirish muhimligi taʼkidlandi.

Oʻtgan yili ikki mamlakat oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 270 mln. dollarni tashkil qildi, joriy yil boshidan buyon esa 100 mln. dollardan oshdi. Yaqin yillarda ushbu koʻrsatkichni 1 mlrd. dollarga yetkazish, savdodagi nomutanosiblikni bartaraf etish, sanoat koʻrgazmalarini oʻrganish taklif etildi. Qishloq xoʻjaligi, elektrotexnika va energetika tarmoqlari, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish va development, raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli bank hamda turizm sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish boʻyicha kelishuvlarga erishildi. Loyihaviy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash uchun qoʻshma Investitsiya jamgʻarmasini tashkil qilish taklifi ilgari surildi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining Gruziyadagi elchixonasini taʼsis etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi.

Tbilisi shahridagi tadbirlar doirasida Oʻzbekiston – Gruziya koʻp qirrali munosabatlarini rivojlantirishga qoʻshgan ulkan hisssasi uchun Gruziya Prezidentining mamlakatimiz rahbariga Gruziyaning oliy davlat mukofoti – “Oltin moʻyna” ordenini topshirgani ham oʻzaro hamkorlik yangi bosqichga koʻtarilganidan dalolat.

Jahongir MAMAJONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BUYUK SHOIRGA YUKSAK EHTIROM IFODASI

Baʼzan hayotda shunday ramziy voqealar yuz beradiki, ular asrlar davomida uzilmay kelayotgan maʼnaviy rishtalarning qanchalik mustahkamligi va barqarorligidan dalolat beradi.

3-iyul kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga davlat tashrifi doirasida Tbilisi shahrida buyuk mutafakkir, turkiy adabiyotning benazir dahosi hazrat Alisher Navoiy haykalining tantanali ravishda ochilishi ana shunday ulugʻ voqealardan biri boʻldi. Marosimda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Gruziya Bosh vaziri Irakli Kobaxidze ishtirok etdi.

Mazkur haykal nafaqat buyuk shoir xotirasiga ehtirom, balki tarix bilan bugunni bogʻlagan maʼnaviy koʻprikdir. Zero, besh yarim asr muqaddam Alisher Navoiy oʻzining buyuk “Saddi Iskandariy” dostonida Gurji yurtini alohida tilga olgan edi:

***Tushub Charkasu Gurja sori yoʻli,
Boʻlub borcha gurjiyu charkas quli.
Shimol ahlin ehsongʻa gʻadir aylabon,
Tavajjuh qilib azmi Sharq aylabon.***

Bu misralar zohiran Iskandar yurishlarini tasvirlasa-da, ularda Kavkaz oʻlkalari, jumladan, Gurjiston haqidagi tasavvurlar ham oʻz aksini topgan. Eng muhimi, Alisher Navoiy Gurji diyorini keng tarixiy maʼnaviy makonning bir qismi sifatida tilga oladi.

Bugun tarix goʻyo oʻzining chiroyli davomini topdi. Bir vaqtlar buyuk ajdodimiz sheʼriyatida tilga olingan Gurji diyorida endi ulugʻ mutafakkirning muhtasham haykali qad rostladi. Bu voqea oʻzbek va gruzin xalqlari oʻrtasidagi madaniy aloqalar tarixida muhim bosqich sifatida baholanmoqda.

Oʻzbekiston va Gruziya xalqlarini azaldan Buyuk Ipak yoʻli, savdo-sotiq, ilm-fan hamda madaniy aloqalar bogʻlab kelgan. Bugungi kunda ikki davlat rahbarlarining tashabbuslari tufayli ushbu munosabatlar mutlaqo yangi bosqichga koʻtarilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga tashrifi nafaqat siyosiy va iqtisodiy hamkorlik, balki madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega boʻldi.

Oʻzbek xalqi Gruziyaning buyuk shoiri Shota Rustaveli merosini hamisha yuksak qadrlab kelgan. Toshkent shahrining markaziy koʻchalaridan biri uning nomi bilan ataladi, poytaxtimizda unga haykal ham oʻrnatilgan. Oʻz navbatida, joriy yilda Tbilisidagi markaziy bogʻlardan biri Alisher Navoiy nomi bilan atalgani ikki xalqning bir-birining buyuk farzandlariga hurmatining yorqin namunasidir.

Shota Rustaveli yashagan adabiy muhit ham Sharq mumtoz madaniyati bilan



chambarchas bogʻliq edi. Uning mashhur “Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon” dostonida insonparvarlik, adolat, sadoqat, mardlik va maʼrifat gʻoyalari ustuvor oʻrin tutadi. Bu gʻoyalarni keyinchalik Alisher Navoiy ijodida ham yuksak badiiy kamolot bilan namoyon boʻladi. Shu maʼnoda, Rustaveli va Navoiy ijodi ikki xalqni birlashtiruvchi umuminsoniy qadriyatlarining badiiy ifodasi hisoblanadi.

Oʻzbek va gruzin xalqlarini yaqinlashtirib kelayotgan omillardan yana biri – ularning mustarak adabiy manbalardan bahramand boʻlgani. Bu jihat, ayniqsa, XVII asr gruzin mumtoz adabiyoti vakili Nodar Titsishviling “Baramguriani” asari misolida yaqqol koʻrinadi. Mazkur asar Bahrom Goʻr haqidagi Sharq adabiy anʼanalari bilan bogʻliq boʻlib, uning ildizlari Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” hamda Alisher Navoiyning “Sabʼai sayyor” dostonlaridagi obrazlar bilan uygʻun.

“Haft paykar” Nizomiy “Xamsa”sining mashhur dostonlaridan biri boʻlib, Bahrom Goʻr hayoti va yetti malikaning hikoyalari oʻz ichiga oladi. Alisher Navoiy ham aynan Nizomiy asos solgan buyuk “Xamsa” anʼanasini turkiy tilda yuksak badiiy kamolotga yetkazgan dahodir. Bu goʻzal sheʼriy qissa Navoiyning “Sabʼai sayyor” asarida yanada yorqin va jozibali tarzda bayon qilindi. “Baramguriani” dostonida esa gruzin shoiri Nizomiy va Navoiy anʼanalari davom ettirish, Sharqda mashhur boʻlgan Bahrom Goʻr haqidagi

afsonalarning oʻziga xos talqinini yaratadi.

Yana bir qiziq jihati, Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida Bahrom Goʻr haqida soʻz yuritarkan, uning aynan Gurjistonga qilgan yurishlari haqida toʻxtaladi. Tarixiy manbalarda, haqiqatan ham, Gruziyaning sharqiy hududlari – qadimgi Iberiya maʼlum muddat Sosoniylar sulolasi vakili Bahrom V (Bahrom Goʻr) hukmronligi ostida boʻlgani zikr etilgan. Bu esa Alisher Navoiyning Gruziya tarixidan yaxshi xabardor ekaniga yana bir dalildir.

Bu ulugʻ daholarning har uchala asarida adolatparvar hukmdor, ezigulik, komil inson, vafo, muhabbat va maʼnaviy poklanish gʻoyalari muhim oʻrin tutadi.

Gruziyada Alisher Navoiy merosiga qiziqish keyingi davrlarda ham davom etgan. Uning gʻazallari va “Xamsa”siga mansub ayrim dostonlari gruzin tiliga tarjima qilingan, adabiyotshunoslardan tomonidan oʻrganilgan. Tbilisidagi Korneli Kekelidze nomidagi

Qoʻlyozmalar milliy markazida arab, fors va turkiy tillardagi koʻplab noyob Sharq qoʻlyozmalari, jumladan, Alisher Navoiyning turli davrlarda koʻchirilgan asarlari ham saqlanadi. Jamshid Giunashvili, Magali Todua, Aleksandr Gvaxaria singari gruzin olimlari buyuk shoir ijodi boʻyicha tadqiqotlar olib borishgan. Ayni paytga qadar Navoiyning qator gʻazallari, ruboiylari, dostonlari gruzin tiliga tarjima qilingan, hatto maktab darsliklariga ham kiritilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Tbilisi shahrida ulugʻ mutafakkir haykalining qad rostlashi bejiz emas. Bu asrlar davomida bir-birini boyitib kelgan ikki buyuk adabiy anʼananing, ikki xalqning oʻzaro ehtiromi va maʼnaviy yaqinligining ramziy ifodasidir. Besh yarim asr muqaddam Navoiy sheʼriyatida tilga olingan Gurji diyori bugun uning muhtasham haykalin oʻz bagʻriga oldi.

Alisher Navoiyning butun ijodi xalqlar oʻrtasida mehr-oqibat, ezigulik, bagʻrikenglik va maʼrifat gʻoyalari tarannum etadi. Shu maʼnoda, Tbilisida qad rostlagan haykal nafaqat sanʼat asari, balki maʼnaviy muloqot timsolidir. U Oʻzbekiston va Gruziya oʻrtasidagi doʻstlik rishtalarini yanada mustahkamlashga, madaniy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Rustam JABBOROV
(“Xalq soʻzi”).



MAʼRIFATGA TAYANGAN TARAQQIYOT YOʻLI



Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida oʻtkaziladigan anjumanda 50 dan ortiq davlatlardan qariyb 300 nafarga yaqin xorijlik mehmonlar ishtirok etishi kutilmoqda. Ular orasida davlat va jamoat arboblari, vazirlar, muftiylar, akademiklar, islomshunos olimlar, qoʻlyozmashunoslarni, muzey va kutubxonalar rahbarlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari bor. Bu esa anjumaning haqiqiy xalqaro muloqot va akademik hamkorlik maydoniga aylanishidan dalolat beradi.

Brifingda qayd etilganidek, forum Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Din ishlari boʻyicha qoʻmita, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Oʻzbekiston musulmonlari idorasi, Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi hamda ICESCO hamkorligida tashkil etilmoqda.

Tadbirning ochilish marosimi Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida oʻtkazilishi ham ramziy ahamiyat kasb etishi taʼkidlandi. Zero, qisqa vaqt ichida mazkur markaz nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqadagi eng yirik va nufuzli ilmiy-maʼrifiy maskanlardan biriga aylanib ulgurdi.

Forum oʻz koʻlami jihatidan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning doirasida 4 ta xalqaro konferensiya, 10 ta yalpi majlis, 15 ta plenar yigʻilish hamda 6 ta soʻhaviy shuʼba tashkil etiladi. Ularda islom sivilizatsiyasi tarixi, hadis ilmi, kalom, qoʻlyozmashunoslik, muzeyshunoslik, arxeologiya, madaniy merosni muhofaza qilish, raqamlashtirish, madaniy diplomatiya hamda Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan maʼnaviy-maʼrifiy islohotlar muhokama qilinadi.

Anjuman doirasida kitoblarni va ilmiy nashrlarni taqdimotiga ham alohida eʼtibor qaratilgan. ICESCO bilan hamkorlikda tayyorlangan “Imom al-Buxoriyning “Al-Jome” as-Sahih” asari – “Ummat kitobi” mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislar toʻplami, IRCICA bilan sheriklikda nashr etilayotgan “Shavkat Mirziyoyev – maʼrifatparvar yoʻlboshchi” kitob-albomi, Rossiya musulmonlari diniy idorasi bilan birgalikda chop etilgan Imom Termiziyning “Shamolli Muhammadia” asarining rus tilidagi akademik nashri va boshqa fundamental loyihalar namoyishi forumning eng esda qolarli voqealaridan biri boʻladi.

Forumning birinchi kungi yalpi majlislarida islom sivilizatsiyasining maʼnaviy merosi, Yangi Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining xalqaro ilmiy-maʼrifiy platforma sifatidagi oʻrni, shuningdek, qoʻlyozmalarni asrash, muzeylar va kutubxonalar hamkorligini rivojlantirish kabi dolzarb mavzular muhokama qilinadi.

Tadbir davomida Oʻzbekistondagi ilmiy-maʼrifiy markazlar va xorijining yetakchi ilmiy muassasalari oʻrtasida qoʻshma loyihalar, yangi ilmiy nashrlar, arxeologik kashfiyotlar, noyob qoʻlyozmalar va raqamli loyihalar taqdimoti oʻtkaziladi. Shuningdek, hamkorlikka oid “yoʻl xaritalari” muhokama qilinib, memorandum va bitimlar imzolashni rejalashtirilgan. Bu esa forumning faqat ilmiy muhokama bilan cheklanmasdan, aniq amaliy natijalarga xizmat qilishini koʻrsatadi.

Tadbirning muhim qismi Samarqand va Termiz shaharlarida boʻlib oʻtadigan xalqaro konferensiyalardir. Ular buyuk allomalarni – Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziyning boy ilmiy merosini har tomonlama oʻrganishga bagʻishlangani bilan ahamiyatli.

Jumladan, Samarqandda oʻtkaziladigan “Imom al-Buxoriyning “Al-Jome” as-Sahih” asari – “Ummat kitobi” mavzuidagi xalqaro konferensiyada buyuk muhaddisning hayoti, uning ilmiy kamoloti, hadislarini saralash uslublari “Al-Jome” as-Sahih”ning yaratilish tarixi, qoʻlyozmalari hamda mazkur asarning islom sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi oʻrni atroflicha muhokama qilinadi. Bu konferensiya doirasida beshta plenar yigʻilish oʻtkazilishi rejalashtirilgan boʻlib, ularda Saudiya Arabistoni, Misr, Marokash, Turkiya, Hindiston, Bangladesh, Buyuk Britaniya, Tunis va boshqa mamlakatlardan kelgan yetakchi hadisshunos olimlar maʼruzalar qiladi.

Imom Moturidiyning bebaho merosiga bagʻishlangan konferensiyada esa moʻtadillik, diniy bagʻrikenglik, aql va naql uygʻunligi kabi masalalar zamonaviy naqlni nazardan tahlil etiladi.

Termiz shahrida oʻtkaziladigan anjuman Termiz hadis maktabi va Imom Termiziyning jahon hadisshunosligiga qoʻshgan beqiyos hissasini oʻrganishga bagʻishlanadi. Bu konferensiyalar orqali Oʻzbekiston nafaqat buyuk allomalar yurti, balki ular merosini tizimli oʻrganish va xalqaro miqyosda targʻib etishning zamonaviy markazi sifatida ham namoyon boʻladi.

Brifingda taʼkidlanganidek, I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi mamlakatimiz tarixida ilk bor oʻtkazilayotgan yirik xalqaro maʼrifiy anjuman sifatida Oʻzbekistonning islom sivilizatsiyasi boʻy merosini asrab-avaylash va uni jahon hamjamiyatiga keng tanitish yoʻlidagi saʼy-harakatlarini yana bir bor namoyon etadi. Shu maʼnoda, forum nafaqat ilmiy muloqot maydoni, balki tinchlik, bagʻrikenglik va maʼrifat gʻoyalari birlashtiruvchi nufuzli xalqaro platforma boʻlishi kutilmoqda.

“Xalq soʻzi”.

TAʼLIM VA ILM-FAN SOHASIDAGI ALOQALAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 2-3-iyul kunlari Gruziyaga amalga oshirgan davlat tashrifi mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim voqealaridan biri boʻldi. Ayniqsa, bu soʻnggi 23 yil davomida Oʻzbekiston Prezidentining Gruziyaga amalga oshirgan birinchi davlat tashrifi sifatida ikki mamlakat munosabatlarida yangi sahifa ochdi.

Tashrifning eng muhim natijasi – Oʻzbekiston va Gruziya oʻrtasida Strategik sheriklik munosabatlarini oʻrnatish toʻgʻrisidagi deklaratsiya imzolangan. Bu hujjat ikki davlat oʻrtasidagi siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport-tranzit, taʼlim, ilm-fan, madaniyat va gumanitar aloqalarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Strategik sheriklik toʻgʻrisidagi qarorning ahamiyati Gruziya rahbariyati tomonidan ham yuksak baholandi. Davlat tashrifi yakunida Gruziya Bosh vaziri Irakli Kobaxidze ushbu kelishuvni ikki mamlakat munosabatlaridagi muhim tarixiy qadam sifatida eʼtirof etib ekan, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar va Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi taraqqiyot yoʻlini yuksak baholadi. Bu, shubhasiz, Yangi Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi tobora ortib borayotgan nufuzining yana bir eʼtirofi boʻlishganadi.

Prezidentimiz muzokaralarda qayd etganidek, ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlar soʻnggi yillarda izchil rivojlanib bormoqda. 2025-yil yakunlariga koʻra, oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi 270 mln. dollarga yetdi, joriy yil boshidan buyon esa 100 mln. dollardan oshdi. Tomonlar yaqin yillarda ushbu koʻrsatkichni 1 mlrd. dollarga yetkazish, savdodagi nomutanosiblikni bartaraf etish va yangi qoʻshma loyihalarni amalga oshirish boʻyicha kelishuvga erishdi.

Transport va logistika sohasida ham muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, mamlakatimiz yuklarini tashishda Poti va Batumi portlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, Gruziyada logistika xabini tashkil etish, shuningdek, Boku – Tbilisi – Kars temir yoʻlini barpo etilayotgan Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli magistrali bilan bogʻlash boʻyicha takliflar bildirildi. Bu tashabbuslar mamlakatlarimiz iqtisodiy integratsiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Muhim natijalardan yana biri – kasbiy va oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar sohasida



hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim imzolanganidir. Bu hujjat universitetlar oʻrtasida akademik hamkorlikni kengaytirish, professor-oʻqituvchilar va talabalar almashinuvini rivojlantirish, qoʻshma taʼlim dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Mazkur kelishuvlar biz uchun kelgusidagi vazifalarni belgilab beruvchi muhim huquqiy asosdir. Joriy yilning mart-aprel oylarida Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti delegatsiyasining Gruziyaga safari ham aynan shu maqsadlarga xizmat qildi. Tashrif davomida Tbilisi davlat universiteti, Gruziya universiteti hamda Telavi davlat universiteti bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Muzokaralar jarayonida universitetlarimiz oʻrtasida akademik mobillikni kengaytirish, professor-oʻqituvchilar va talabalar almashinuvini yoʻlga qoʻyish, qoʻshma taʼlim dasturlari, ilmiy tadqiqotlar, yozgi va qishki maktablar, malaka oshirish kurslari hamda tarjimonlar tayyorlash sohalarida amaliy hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha kelishuvlarga erishdik.

Ayniqsa, Tbilisi davlat universiteti bilan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida 2026/2027 oʻquv yilidan malakali gruzin tili oʻqituvchilarini jalb qilish, 10 nafardan talabamizni oʻzaro almashish boʻyicha anglashuvga erishdik.

Gruziya Oliy taʼlim, fan va yoshlar vazirligi rahbariyati bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvlarda universitetimizda Gruzin tili markazini tashkil etish, uni zamonaviy oʻquv-uslubiy baza bilan taʼminlash, gruzin tilini oʻqitishni tizimli yoʻlga qoʻyish, kelgusida esa Tbilisi davlat universitetida Oʻzbek tili markazini ochish, shuningdek, mazkur vazifalarni bosqichma-

bosqich amalga oshirish boʻyicha qoʻshma “Yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqishga kelishib oldik.

Ayni paytda Gruziyaga xizmat safari davomida erishilgan kelishuvlar jiroi yuzasidan tegishli saʼy-harakatlar olib borilayotir.

Aytish joizki, davlat rahbarlari tomonidan strategik sheriklik darajasiga koʻtarilgan munosabatlarning muhim amaliy natijalaridan biri ham ana shunday universitetlararo hamkorlikning yangi mazmun bilan boyib borayotganida namoyon boʻlmoqda. Bu tashabbuslar nafaqat xorijiy tillar taʼlimi va tarjimonlar tayyorlash sifatini yuksaltirishga, balki mamlakatlarimiz oʻrtasidagi ilm-fan va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Prezidentimizning Gruziyaga davlat tashrifi davomida joriy yilda Oʻzbekistonda qoʻshma taʼlim va turizm forumlarini oʻtkazish rejalashtirilgani ham taʼlim sohasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tashabbuslar universitetlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlikni rivojlantirish, akademik mobillikni kengaytirish hamda xalqaro tajribani boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozori raqobatbardosh, bir nechta xorijiy tilni mukammal egallagan, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni yaxshi oʻzlashtirgan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tashrif doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim, shuningdek, turizm, madaniyat, sogʻliqni saqlash, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalaridagi qator hujjatlarining imzolashini oliy taʼlim muassasalari zimmasiga yanada masʼuliyatli vazifalarni yuklaydi.

Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, yetakchi xorijiy oliygoahlar bilan qoʻshma taʼlim dasturlarini yoʻlga qoʻyish, akademik mobillikni rivojlantirish, xorijiy tillarni oʻqitish sifati va tarjimonlik taʼlimi samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Gruziyaning oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, tilshunoslik, tarjiamashunoslik, jurnalistika, turizm, madaniyatlar-aro kommunikatsiya va xalqaro munosabatlar

Hisob palatasi davlat organlari va tashkilotlarida moliyaviy, muvofiqlik hamda samaradorlik auditi yoʻnalishlarida axborot texnologiyalari auditini oʻtkazishga masʼul vakolatli organ etib belgilandi.

Rag'bat

YOSH MUHANDISGA
MUNOSIB TUHFA



Ko'rgazmada Nukus davlat texnika universiteti talabalari tomonidan xalqaro "Shell Eco-marathon" tanlovi uchun yaratilgan "Aral Drive" loyihasi ham taqdim etildi. Davlatimiz rahbari ushbu jamoa a'zosi, universitet talabasi va Nukus yoshlar texnoparki rezidenti Ayzada Asanovanning "Yangi avlod avtomobillari" yo'nalishidagi yutuq'ini munosib baholab, uni Prezident sovg'asi – "Volkswagen" elektromobili bilan taqdirladi.

Shundan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev Yoshlar kuniga bag'ishlangan ko'rgazma ishtirokchilari bilan uchrashib, Prezident sovg'asini o'z egasiga tantanalı ravishda topshirdi. Uchrashuvda "Aral Drive" jamoasi erishgan yutuq bilan qutlanib, ularga Belgiyada bo'lib o'tadigan xalqaro musobaqada ham munosib natijalarga erishish tilaklari bildirildi.

Mazkur e'tirof mamlakatimizda yosh muhandislar va innovatsion g'oyalar har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganining yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

"Xalq so'zi".

SO'ZINGIZ O'ZINGIZNIKIMI?

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev madaniyat, san'at va adabiyot sohasi xodimlari bilan o'tkazgan uchrashuvida raqamli texnologiya hamda sun'iy intellekt ijod va madaniyat sohalariga ham kirib kelganini qayd etib, har bir asarning raqamli izini yaratish orqali ijodkorlar huquqini kafolatli himoya qilish imkoniyatlari haqida alohida to'xtaldi. Eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

Mulohaza

Chindan ham, sun'iy intellekt texnologiyalari taraqqiy etgan davrda yashayapmiz. Kimki undan foydalanmasa, raqobatga dosh berolmasligi muqarrar. Chunki inson yaratgan ushbu ixtiro shu qadar jadal sur'atlarda rivojlanib boryaptiki, qisqa vaqt ichida ko'plab masalalarda kundalik yordamchimizga aylanib ulgurdı. Ammo har qanday qulayliklar o'ziga yarasha yo'qotishlarga ham olib keladi. Masalan, yaqin-yaqingacha odamlar biror manzilinı topishda qog'oz xaritadan foydalangan bo'lsa, endilikda navigatorlar bu jarayonni to'liq o'z zimmasiga oldi. Natijada manzilga yetib olish uchun aqili mushohada yuritishga hojat qolmadi. Demakki, inson texnika va ilm-fanda yuksaklarga chiqqani sari, intellektual jihatdan dangasalashib borish xavfi ham saqlanib qolmoqda.

Har kishining a
ytar so'zi bo'lsa...

Ustoz shoirlardan biri o'z she'rida shunday yozadi:

*Kishi bilan suhbat qursang,
Uning aytar so'zi bo'lsa,
Birovlardek turlanmasa,
Ro'parangda o'zi bo'lsa.*

Shoir aytgan "Uning aytar so'zi bo'lsa" degan fikr bugun har qachongidan ham dolzarb. Ayniqsa, jurnalist va ijodkorlar ilgari shaxsiy uslubı, ijodiy o'ziga xos ohangi va fikrining tabiiyligi bilan bir-biridan farqlangan bo'lsa, bugun ijodiy jarayonlarda birxillashuv ustuvorlik qilmoqda.

Tan olish kerakki, sun'iy intellekt matn yozishni misli ko'rilmagan darajada osonlashtirdi. Tahriri jihatdan to'g'ri, mantiqan izchil maqola bir necha soniyada tayyor bo'ladi. Biroq aynan shu qulaylik ortidan insonning o'z fikrini jamlash, uni bexato, ravon va tabiiy yetkazish ko'nikmasiga putur yetmoqda.

Bundan bir asr muqaddam yozilgan matnning – xoh u she'r yoki nasriy asar, xoh maqola bo'lsin – yozilish

NODIRBEK ABDUSATTOROVNING NAVBATDAGI MUVAFFAQIYATI

Xorvatiyaning Zagreb shahrida "SuperUnited Rapid & Blitz Croatia – 2026" musobaqasi yakunlandi.

Shaxmat

Mukofot jamg'armasi 200 ming AQSH dollaridan iborat nufuzli turnirda hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov, fransiyalik Alireza Firuzja va Maksim Vashye-Lagrav, hindistonlik Rameshbabu Praggnanandxa va Dommaraju Gukesh, niderlandiyalik Anish Giri va Jordan Van Forest, germaniyalik Vinsent Kaymer, ruminiyalik Bogdan-Danyel Dyak, xorvatiyalik Ivan

Sarich g'oliblik yo'lida kurash olib bordi.

"Grand Chess Tour" tizimidagi musobaqaning rapid yo'nalishida 12 ochko jamg'argan Alireza Firuzja 1-o'rinni egallagan bo'lsa, blis bahslarida terma jamoamiz sardori Nodirbek Abdusattorov o'ziga xos o'yin namoyish etib, 12,5 ochko jamg'argan holda g'olibga aylandi.

Musobaqa sarhisobiga ko'ra, Nodirbek Abdusattorov va Alireza Firuzja 24 ochkoga egalik qilgan holda qo'shimcha tay-



brek bellashuvida ro'baro' keldi. Birinchi va ikkinchi partiyalarda tomonlar murosı yo'lini tanlagani bois musobaqa g'olibi armageddon

formatidagi bahsda aniqlanadigan bo'ldi.

Mazkur o'yin shaklida oqlar 5, qoralar 4 daqiqa vaqt bilan

harakatlanishi belgilangan bo'lib, 61-yurishdan boshlab har bir dona surishga 2 soniyadan vaqt qo'shilishi belgilangan.

Tashlangan qur'aga binoan armageddon formatining ilk o'yinida Alireza Firuzja qora donalarda durangga erishishi ortidan "SuperUnited Rapid & Blitz Croatia – 2026" g'olibligini qo'lga kiritdi va 47 ming 500 dollar bilan taqdirlandi. O'z navbatida, 2-o'rinni egallagan Nodirbek Abdusattorov 42 ming 500 dollar miqdoridagi mukofot pulini qo'lga kiritdi.

"Xalq so'zi".

YANGI KUCH VA ILHOM MANBAI



Kitob tumanidagi Qaynar qishlog'ida joylashgan "Yosh alangachi" oromgohida o'g'il-qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida turli ko'ngilochar, intellektual, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Yozgi ta'til

Ana shunday tadbirlardan biri Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Unda "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Ijodimda Vatan madhi" rasmlar tanlovi, sport musobaqasi hamda milliy toamlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Tadbir yakunida faol qatnashgan bolajonlarga tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik

sovg'alari topshirildi.

– Oromgohlarda bolalarning madaniy hordiq chiqarishi, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqanmiz, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi rahbari Komila Karomova. – Shu asosda viloyatdagi barcha oromgohda bu kabi tadbirlarni o'tkazib boryapmiz.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Tahririyat pochtasidan

MUZEY
RESTAVRATSIYASI
DASTURGA
KIRITILGAN

Gazetamizning 2026-yil 7-may sonida e'lon qilingan "Sadriddin Ayniy muzeyi qachon zamonaviy qiyofa kasb etadi?" sarlavhali maqolada muxbirimiz Istam Ibrohimov G'ijduvon tumanining Soktari qishlog'idagi Sadriddin Ayniy muzeyi ne ajabki tarixiy masjidida joylashganini ta'kidlab, muzey uchun yangi bino qurish masalasini ko'targan edi.



Maqolada, jumladan, adib tavalludining 150-yilligi munosabati bilan 2028-yilgacha muzey binosini qurib, foydalanishga topshirish taklifi o'rtaga tashlangan.

Mazkur maqola yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi o'z munosabatini bildirdi. Direktor o'rinbosari Ziyoviddin Valiyev imzosi bilan kelgan xatda ma'lum qilinishicha, 2022-yilda ushbu obyekt bo'yicha konservatsiya va restavratsiya ishlarini amalga oshirish uchun loyiha hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular Madaniy meros agentligi ilmiy-ekspert kengashi tomonidan ma'qullangan va 2023-yilda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 350 million so'm ajratilib, qisman ta'mirlash ishlari bajarilgan.

Bundan tashqari, javob xatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar) larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi qarorida mazkur muzeyni restavratsiya qilish vazifasi qo'yilgan. Qarorga ko'ra, "Soktari-1" masjidi (Sadriddin Ayniy uy-muzeyi) ni restavratsiya qilish ishlari Madaniy meros agentligining 2026-yilgi manzilli dasturiga kiritilgan bo'lib, joriy yil davomida obyektida ta'mirlash va restavratsiya ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgani aytiladi.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

Elektromagnit moslashuv markazi «Elektromagnit moslashuv ekspertizasi, radioelektron vositalar va yuqori chastotali quurilmalarni ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlarga tariflar» yangi tahrirda tasdiqlanganini va 2026-yil 1-avgustdan kuchga kirishini ma'lum qiladi.

To'liq ma'lumot bilan korxonaning rasmiy veb-sahifasi — «www.cemc.uz»da tanishish mumkin.

Pokistondan Qoraqalpog'istonga 200 bosh naslli qoramol olib kelish bo'yicha shartnoma imzolandi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 629. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabqo. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2020-6768

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.15 Topshirildi – 00.20 1 2 3 4 5 6

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismoilov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhish S. Islomov.